



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 22-may, № 103 (8998)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TURKIY DAVLATLAR O'RTASIDAGI KO'P QIRRALI STRATEGIK SHERIKLIK ALOQALARINING YANGI DAVRI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan 19 – 21-may kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-may kuni Budapesht shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etdi.

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban raisligida o'tgan tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan hamda Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq tashkilot doirasidagi ko'p qirrali aloqalarning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida jahonda geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o'zgarishi oqibatlarini kuchayib borayotgan bugungi murakkab vaziyat shiddat bilan o'zgarib borayotganini qayd etdi.

Prezidentimiz dolzarb xalqaro muammolarni hal etishda, birinchi navbatda, xalqaro huquq normalari va BMT Nizomiga tayangan holda tashkilot davlatlarining umumiy yondashuv va pozitsiyalarini mustahkamlash muhimligini qayd etdi.

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga to'xtalar ekan, O'zbekiston yetakchisi bu borada ishga solinmagan ulkan salohiyat mavjudligini ko'rsatib o'tdi va qator yangi takliflar bildirdi.

Siyosiy jihatdan O'zbekiston tashabbusi bilan Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi bitimning imzolinishi dolzarb ahamiyatga ega ekan ta'kidlandi. Ushbu hujjat xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorlikning uzoq muddatli huquqiy bazasini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Prezidentimiz savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-kommunikatsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, Tashkilot mamlakatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasida o'zaro savdo ulushini oshirish maqsadida "Turk-treyd" onlayn platformasini yaratish va Tovar ayirboshlashni ko'paytirish bo'yicha amaliy dastur qabul qilish taklif etildi.

Transkaspian xalqaro yo'lga orqali yuk tashish hajmining o'sishini ta'minlash va bojxona-chegara tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida davlatimiz rahbari ushbu yo'nalish bo'yicha "yagona darcha" va "yashil yo'laklar" tizimini tez fursatda joriy etishga chaqirdi. Bu boradagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida joriy yil noyabr oyida Toshkent shahrida Turkiy davlatlarning xalqaro multimodal transport va logistika forumini o'tkazish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Turkiy investitsiya jamg'armasi ta'sis etilganini olqishlab, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun Qo'shma vechur kompaniyasi va Tashkilotga a'zo mamlakatlarning

investitsiyaviy imkoniyatlarini taqdim etadigan yagona portal tashkil etish muhim ekanini ta'kidladi.

Sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida kimyo, energetika, tog'-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish tarmoqlarida yirik ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari iqlim kun tartibiga to'xtalar ekan, yaqinda Samarqand shahrida o'tgan Xalqaro iqlim forumi davomida "yashil" taraqqiyot sohasida global va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha qator muhim tashabbuslar ilgari surilganini mamnuvniyat bilan qayd etdi. Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning Budapesht shahrida Qurg'oqchilikning oldini olish institutini ishga tushirish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. Uning faoliyatiga ko'maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb qilish uchun "Qurg'oqchilik va ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha qo'shma yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish taklif qilindi.

O'zbekiston Prezidenti fan, madaniyat va ta'lim sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Toshkent shahrida Turkiy davlatlar xalqaro universitetining ochilishi tashkilotga a'zo mamlakatlarning ta'lim dasturlarini amalga oshirish va iqtidorli yoshlarni tayyorlashga munosib hissa bo'lishi ta'kidlandi.

O'zbekiston yetakchisi Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY faoliyati va tuzilmasini

takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda Turkiy madaniyat jamg'armasi kengaytirish navbatdagi yig'ilishini O'zbekistonda o'tkazishni taklif etdi.

Sammit yakunida Budapesht deklaratsiyasi, shuningdek, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha boshqa qator hujjatlar qabul qilindi.

Budapeshtdagi Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida "Turkiy dunyo birligiga qo'shgan hisssasi uchun" Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotini topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Bu yil mukofotga taniqli turk biokimyogari, Nobel mukofoti sovrindori, O'zbekiston Milliy universiteti faxriy doktori Aziz Sanjar sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Aziz Sanjarni samimiy tabriklab, nufuzli mukofotning ilm-fan arbobiya topshirilishi turkiy dunyo olimlari, jumladan, yoshlarni yangi marralarni zabt etishga ilhomlantirishini alohida ta'kidladi.

Turkiy davlatlar tashkilotining buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi mukofoti davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2021-yilda ta'sis etilgan. U turkiy madaniyatni targ'ib qilish, tinchlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va ishonchni mustahkamlash, shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasida turli sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qo'shilgan alohida hissa uchun har ikki yilda bir marta topshiriladi.

Mukofot ilk bor 2022-yilda qirg'iz yozuvchisi va jamoat arbobi marhum Chingiz Aytmatovga berilgan edi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrif yakunlandi.

Kunning ikkinchi yarmida Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musarning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan birga rasmiy tashrif bilan Lyublyanaga keldi.

Samolyot oldida davlatimiz rahbarini Bosh vazir o'rinbosari – tashqi ishlar vaziri Tanya Fayon va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Yoje Puchnik nomidagi xalqaro aeroportda oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordir.

Tashrif dasturiga muvofiq 22-may kuni O'zbekiston yetakchisi Sloveniya Respublikasi Prezidenti Natasha Pirs Musar bilan muzokaralar o'tkazadi, mamlakat parlamenti va hukumati rahbariyati bilan uchrashuvlar o'tkazadi, qo'shma biznes forumida ishtirok etadi.

O'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy sheriklikni rivojlantirish, sanoat, farmatsevtika, elektrotexnika, "yashil" energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, mehnat migratsiyasi bo'yicha hamkorlik va gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI NORASMIY SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Siz, azizlar bilan asrlar davomida Sharq va G'arb o'rtasida mustahkam ko'priklar bo'lib kelayotgan go'zal Budapesht shahrida uchrashib turganimizdan behad mamnunman.

Bugungi yig'ilishimizga yuksak darajada mezbonlik qilayotgan hurmatli Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Janobi Oliyarlari sha'niga aytilgan minnatdorlik so'zlariga qo'shilaman.

Tashkilotimizda muvaffaqiyatli raislik qilayotgan hurmatli Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Nurg'oyevich Japarov Janobi Oliyarlarga yangi yutuqlar tilayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bugungi sammitimiz shiddat bilan o'zgarayotgan global vaziyat va oldindan aytib bo'lmaydigan murakkab jarayonlar sharoitida o'tmoqda. Geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va iqlim o'zgarishi oqibatlarining kuchayishi barchamiz uchun katta sinov bo'lmoqda.

Shu sababli dolzarb muammolar yechimi bo'yicha davlatlarimizning umumiy yondashuv va pozitsiyalarini kuchaytirish har qachongidan ham muhimdir.

Ta'kidlash lozimki, biz eng og'riqli muammolarga xalqaro huquq me'yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi asosida yechim topish zarur, deb hisoblaymiz.

Ukraina atrofidagi vaziyatni diplomatiya va muzokaralar yo'li bilan hal etishga qaratilgan amaliy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Hurmatli Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan Janobi Oliyarlarning bu boradagi munosib hissasini alohida e'tirof etmoqchiman.

G'azoda sulh bitimining buzilishi va harbiy harakatlarning qaytadan boshlanishi barchamizni chuqur tashvishga solmoqda. Toki "Ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyili ro'yobga chiqmas ekan, Falastin – Isroil nizosining adolati yechimini topish mumkin emas.

Global va mintaqaviy xavfsizlik haqida so'z yuritir ekanmiz, Afg'onistondagi murakkab vaziyatni inobatga olishimiz va unga birgalikda yechim topishimiz lozim. Afg'oniston bo'yicha qo'shma bayonot qabul qilinayotgani tuzilmamizning bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelayotganidan dalolat beradi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Biz qisqa vaqt mobaynida Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida amaliy hamkorlik bo'yicha samarali natijalarga erishmoqdamiz. Yaqinda iqtisodiy tahlil markazlarimizning Toshkentda bo'lib o'tgan anjumanida aloqalarimizni kengaytirish uchun ulkan salohiyat borligi yana bir bor o'z tasdiqini topdi.

Kun tartibidan kelib chiqib, o'z takliflarimizni bildirmoqchiman.

Xabaringiz bor, o'tgan yili Turkiy davlatlar o'rtasida strategik sheriklik, abadiy do'stlik hamda qardoshlik to'g'risidagi bitimni ishlab chiqish taklifini ilgari surgan edik.

Bugungi kunda ushbu hujjatning ahamiyati va dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Hech shubhasiz, mazkur bitim xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish va ko'p qirrali hamkorligimizning uzoq muddatli huquqiy asosini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu hujjatni Boku sammitida imzolashni taklif qilaman.

Oldimizda aniq vazifa turibdi – yaqin yillarda

o'zaro savdo ulushini keskin ko'paytirish lozim. Shu maqsadda "Turk-treyd" onlayn platformasini yaratish va Savdoni oshirish amaliy dasturini qabul qilish tashabbuslarini ilgari suramiz.

Transkaspian xalqaro yo'lga orqali yuk tashish hajmini oshirish va bojxona-chegara tartiblarini soddalashtirish uchun "yagona darcha" hamda "yashil koridorlar" tizimlarini tezroq yo'lga qo'yishga chaqiramiz. Ushbu yo'nalishdagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida noyabr oyida Toshkentda Turkiy davlatlarning Xalqaro multimodal transport va logistika forumini o'tkazishni rejalashtirganimiz.

Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, Turkiy investitsiya jamg'armasining faoliyati sarmoyalar oqimining faollashuviga turki berishi shubhasiz. Biz innovatsion loyihalarni rag'batlantirish uchun Qo'shma vechur kompaniyasini tashkil etish zarur, deb hisoblaymiz. Bu borada mamlakatlarimizning investitsiya imkoniyatlarini to'liq aks ettirgan "Yagona investitsiya portalini" joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir masala. Canoat kooperatsiyasi sohasida amaliy hamkorlikni kengaytirishga ko'tarish vaqti keldi. Bu borada kimyo, energetika, tog'-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish sohalarida salmoqli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha Sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqishni taklif etaman.

Yaqinda Samarqand shahrida o'tkazilgan Xalqaro iqlim forumida "yashil" taraqqiyot sohasidagi mintaqaviy va global hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha muhim takliflar bildirildi.

Hurmatli Viktor Orban Janobi Oliyarlarning

tashabbusi bilan Budapeshtda Tashkilotimizning Qurg'oqchilikning oldini olish instituti o'z ishini boshlaganini ham mamnuvniyat bilan e'tirof etamiz. Mazkur institut faoliyatiga ko'maklashish va maqsadli loyihalarga kengroq jalb etish uchun "Qurg'oqchilik va ekologik muammolarning oldini olish bo'yicha qo'shma yo'l xaritasi"ni ishlab chiqishni taklif etaman.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan, barchamizning faxr-iftixorimiz bo'lgan buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganish va dunyoga tarannum etish biz uchun sharafli va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois ilm-fanni rivojlantirish va yosh avlod uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish niyatida Turkiy dunyo xartiyasida "Ilmdan o'zga najot yo'q" degan yuksak axloqiy g'oyani muhrlab qo'ydik.

Ushbu ezgu maqsad yo'lida Toshkentda Turkiy davlatlar xalqaro universiteti ochilmoqda. Mazkur o'quv dargohida turkiy davlatlarning yetuk professor va olimlari faoliyat olib borishi ko'zda tutilmoqda. Bu esa yosh avlodning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, ularning zamonaviy bilimlarni egallashiga munosib hissa qo'shadi, deb ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

O'tgan yili O'zbekistonning Turkiy madaniyat va meros jamg'armasiga rasman a'zo bo'lib kirish haqidagi qarorini e'lon qilgan edik. Ushbu tuzilma doirasida umumturkiy madaniy merosimizni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga bezovalik bilan yetkazish oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu sohadagi muloqotni kengaytirish maqsadida Jamg'arma

Kengashining navbatdagi yig'ilishini mamlakatimizda o'tkazishni taklif qilaman.

Davlatlarimiz o'rtasidagi madaniy hamkorlikni rivojlantirishda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti – TURKSOY alohida o'rinda ega. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarimizni yangi bosqichga olib chiqish va yosh avlod uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun uning faoliyatini va tuzilmasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur, deb hisoblayman. Shu maqsadda tashqi ishlar va madaniyat vazirlarimizga Boku sammitiga qadar tegishli takliflar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, to'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

Muhtaram hamkasblar!

Bundan uch yil oldin turkiy dunyo birligiga qo'shgan ulkan hisssasi uchun buyuk mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etgan edik.

Bugun ushbu nufuzli mukofot bilan atloqli turk olimi, biokimik, Nobel mukofoti sovrindori, janob Aziz Sanjar taqdirlanayotganidan behad mamnunmiz. Bu mashhur olim O'zbekiston Milliy universitetining faxriy doktori ekanidan biz albatta g'ururlanamiz.

Aminmanki, bugungi taqdirlash marosimi turkiy dunyo olimlarini, jumladan, ilm-fan yo'lga dadil qadam qo'yayotgan yoshlarimizni yangi-yangi marralar sari rag'batlantiradi.

Aziz do'stlar!

Bugungi Budapesht sammitida qabul qilingan muhim qaror va hujjatlar qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi tinchlik, hamjihatlik va barqaror taraqqiyotni mustahkamlash yo'lida yangi sahifa ochishiga ishonaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

VATAN OBODLIGI MAHALLADAN BOSHLANADI

Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Senator va hayot



Viloyatda yoshlarga oid jinoyatlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning ortayotgani tashvishli holat sifatida baholandi. 2024-yilda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 43 tadan 65 taga oshgan, ya'ni 51,2 foizlik o'sish qayd qilingan.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshqargan majlisda viloyatdagi jinoyatchilik holati va korruptsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda mavjud muammolarning asosiy sabablari tahlil qilindi. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni kamaytirish, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, mahallalarda xavfsizlikni ta'minlash hamda aholining huquqi o'zgarishiga qaratilgan istiqbolli rejalar belgilandi. Majlisda jinoyatchilikning

oldini olishda huquqni muhofaza qilish organlari, mahalliy hokimiyat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, jinoyatchilikka qarshi tizimli va manzilli yondashuvni shakllantirish zarurligi qat'iy ta'kidlandi. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish, kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish, yoshlar va ayollar bilan profilaktik ishlarda yangicha mexanizmlarni joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Aholi farovonligini ta'minlash yo'lidagi ishlar sarhisob qilinmoqda

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi ishchi guruhning Jizzax viloyatiga tashrii davomida mahallalarda huquqbuzarliklar profilaktikasi, korruptsiyaga qarshi kurashish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ijtimoiy muhitni yaxshilash va yoshlar ishtirokini kuchaytirish kabi dolzarb yo'nalishlardagi ishlar o'rganildi.

Ishchi guruh Sharof Rashidov tumanidagi 32-maktab negizida tashkil etilgan "Jasorat maktabi" faoliyati bilan ham tanishdi. Bu dargoh yoshlarda vatanparvarlik ruhini kuchaytirish, jinoyatchilik va radikal g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish bo'yicha tajribaviy loyiha sifatida faoliyat yuritmoqda. Shundan so'ng Jizzax shahridagi Ma'naviyat markazida xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash borasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Muloqot jarayonida ayollar bandligini oshirish, kasb-

hunarga yo'naltirish, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar bilan manzilli ishlash borasida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar bildirildi. Zargarlik mahallasida amalga oshirilayotgan "xavfsiz hudud" tamoyili asosidagi ishlar, mahalla infratuzilmasini yaxshilash, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlar ham o'rganildi. Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasida

o'tkazilgan uchrashuvda esa 2025-yil 3-yanvardagi Prezident qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan Kiberxavfsizlik bo'limi faoliyati, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ilgari surilgan takliflar bilan tanishildi. Shuningdek, Senat Kengashining 2025-yil 28-yanvardagi qarori asosida tashkil etilgan namunali xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi faoliyati ham o'rganildi. Xalq vakillarining fuqarolar bilan besavosa muloqoti, mahalla va oilalardagi muammolarga yechim topishdagi roli, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, Madaniyat mahallasida jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, "Jizzax mehnat monitoring tizimi.uz" elektron platformasi taqdimoti ham o'tkazildi.

Shu yerning o'zida yoshlardan tashkil topgan "Qalqon 2" guruhi hamda "Antikorruptsiya volontyortlari" faoliyati bilan ham tanishildi. Ushbu guruhlar hududlardagi muammolarni aniqlash, profilaktika ishlarni kuchaytirish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oliy Majlis Senati Raisi ayollar va yoshlarning bandligini ta'minlash, mahalliy darajada shaffof va mas'uliyatli boshqaruvni joriy etish nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy muhitni yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi. Shu bois joylarda ilg'or tajribalarni ommalashtirish, tizimli yondashuvni kuchaytirish yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

"Xalq so'zi".

Parlament nazorati



MAQSAD — TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH

Avval xabar qilinganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida hududlarda bir qator seminarlar o'tkazilmoqda.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida ishlab chiqarish, eksport va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, savdo hamda sanoat siyosati samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar ijrosidan kelib chiqib tashkil etilayotgan seminarlarda hududlardagi mavjud imkoniyatlar, tadbirkorlarni o'ylandirayotgan masalalar, soliqqa oid mexanizmlar, ularni qo'llashda mahalliy Kengashlarning o'ri va roliga qaratilgan jihatlar atroficha ko'rib chiqilyapti.

holda koeffitsiyent qo'llash vakolati berildi hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining qarori bilan stavkalariga o'zgartirishlar kiritildi. Albatta, bu kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining holatini to'g'ri baholash orqali oshiruvchi koeffitsiyentlarni muayyan stavkalarida belgilashga imkon beradi.

Xususan, poytaxtimizda va Toshkent viloyatida o'tkazilgan seminarlarda tuman va shaharlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlar belgilash ishlarining holati chuqur tahlillar asosida muhokama qilindi. Unda xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar Kengashlari raislari, kotibiyat mudirlari, doimiy komissiya raislari, mutasaddi tashkilotlar vakillari hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Shuningdek, seminarlarda Toshkent viloyatida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga oshiruvchi yoki pasaytiruvchi koeffitsiyentlar belgilash ishlarining holati chuqur tahlillar asosida muhokama qilindi. Unda xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar Kengashlari raislari, kotibiyat mudirlari, doimiy komissiya raislari, mutasaddi tashkilotlar vakillari hamda jurnalistlar ishtirok etdi. Toshkent shahrida joriy yildan boshlab ko'chmas mulk ijara qiymatining 1 kv. metri uchun o'rnatilgan minimal miqdorlariga nisbatan 2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent, xususan, ushbu koeffitsiyentni yer solig'i bo'yicha poytaxtimizda zonalar kesimida qo'llash vakolati berilgan va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining qarori bilan eng yuqori stavkalar belgilangan, deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Baxtiyor Artiqov. Buning natijasida ayrim tadbirkorlik subyektlaridan e'tirozlar bildirilib, shahar hokimligiga, tegishli idoralarga juda ko'p murojaatlar kelib tushgan. Shunga ko'ra joriy yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qaroriga asosan yuqorida keltirib o'tilgan obyektlarga tabaqalashtirgan

Deputatlar tomonidan tadbirkorlik salohiyati sust yoki sarmoya yetishmayotgan hududlar uchun imtiyozli koeffitsiyentlar qo'llash takliflarini byudjet so'rovi boshlanishidan oldin tayyorlash hamda tuman va shaharlar mahalliy Kengashlarida muhokamadan o'tkazib olish maqsadga muvofiq qo'llandi. Seminarlar yakunida tadbirkorlarga imkon berish, shuningdek, soliq bazasini kengaytirish orqali daromadni ko'paytirish masalalari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi. Bu kabi seminarlar barcha hududda davom etadi.

"Xalq so'zi".

Senat qo'mitasida



XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH — ISH O'RINLARI VA DAROMAD DEMAK

Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining kecha bo'lib o'tgan majlisida hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar holati yuzasidan mas'ul vazirlik va idoralarning axborotlari eshitildi.

Ma'lumotlarga ko'ra xizmatlar sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash borasida qator ishlar bajarilgan. Xususan, 2025-yilning yanvar – mart oylarida respublikada bozor xizmatlari hajmi 210,8 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 112,6 foizga oshgan.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (116,9 foiz), Samarqand (114,0 foiz) va Navoiy (113,1 foiz) viloyatlarida qayd etilgan.

Joriy yilning birinchi choragida xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha chakana savdoda 5,2 mingta, maishiy xizmatda 1,4 mingta, turizm bilan bog'liq yo'nalishlarda 738 ta, ta'lim va tibbiyot sohaslarida 730 ta hamda 3,6 mingdan ziyod boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari ishga tushirilgan. Umuman, respublika miqyosida 23,3 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgan.

Birgina turizm sohasini oladigan bo'lsak, joriy yilning yanvar – mart oylarida respublikamizga 2,1 mln. nafar xorijlik sayyoh tashrif buyurib, 927 mln. dollarlik turizm xizmatlari ko'rsatilgan. "O'zbekiston bo'yab sayohat qil!" dasturi doirasida hududlar bo'yab 2,3 mln. nafar aholining tashriflari amalga oshirilgan.

Yig'ilishda uddalangan ijobiy ishlar bilan bir qatorda xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq ayrim muammo va kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi.

Jumladan, ba'zi hudud va tarmoqlarda joriy yilning birinchi choragida xizmatlar sohasida o'sish sur'atlari o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan pasayish kuzatilganligi qayd etildi. Mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmagani oqibatida elektron savdo platformasiga chiqarilgan xizmat ko'rsatish va savdo obyektlarining o'z vaqtida sotilmasligi hollari ham mavjud. Bunday holatlar vaqtincha foydalanilmayotgan yer uchastkalarini axborot tizimlari orqali tadbirkorlarga berish jarayonlarida ham uchraydi.

Respublikaning 28 ta tuman (shahar)ida mazkur yo'nalishdagi birorta ham ko'chma savdo nuqtasi auktsion savdolariga chiqarilmagan.

Muhokamada senatorlar sohani yanada rivojlantirish va qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini bildirdi hamda qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

KORRUPSIYA — KELAJAKKA TAHDID

Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilgan respublika, viloyat va tuman (shahar) yosh targ'ibotchilar guruhlari a'zolari uchun tashkil etilgan "Korruptsiya — kelajakka tahdid" mavzuida o'quv-seminar bo'lib o'tdi.

Seminar

Unda Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov, Yoshlar parlamenti a'zolari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari huzuridagi Yoshlar maslahat guruhi a'zolari, faol yoshlar hamda mutaxassislar qatnashdi.

Tadbirda Q. Burhonov so'zga chiqib, mamlakatimizda korruptsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, uning doirasida keng

ko'lami islohotlar amalga oshirilayotgani, shuningdek, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish muhimligini ta'kidladi.

Seminar doirasida mutaxassislar, qonunchilik organlari vakillari, huquqshunoslari, psixologlar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari tomonidan ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar hamda interfaol sessiyalar tashkil etildi. Shuningdek, respublika bo'yicha yosh targ'ibotchilar tomonidan o'z hududlarida olib boriladigan targ'ibot-tashviqot

ishlari haqida fikr almashildi. Ular o'zlariga bilimlarni oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari hamda mahallalarda yoshlar bilan ishlashda unumli qo'llashi lozimligiga e'tibor qaratildi.

Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi Laylo Aslonova ham o'z mas'ulasida korruptsiyaning yoshlar tafakkuriga salbiy ta'siri, unga qarshi kurashishda yoshlarga xos yondashuvlar, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi haqida fikr yuritdi. O'z navbatida, yoshlarni qonuniylik, halollik va adolat prinsiplariga sodiq bo'lishga, jamiyat taraqqiyoti yo'lida faol ishtirok etishga chaqirdi.

"Xalq so'zi".

Talabalar yuqori palata faoliyati bilan tanishdi

Oliy Majlis Senatida Aniq va ijtimoiy fanlar universitetining iqtidorli talabalari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv

Mazkur tadbir yoshlarda parlament tizimi bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularning siyosiy va jarayonlardagi faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari va demokratik boshqaruv tamoyillari haqida

keng tasavvur hosil qilish maqsadida o'tkazildi.

Muloqot chog'ida Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev parlament yuqori palatasining konstitutsiyaviy

vazifalari, qonun ijodkorligidagi ishtiroki, mahalliy Kengashlar bilan olib borilayotgan hamkorlik yo'nalishlari yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berdi. Ochiq va samimiy ruhda o'tgan suhbat davomida davlat boshqaruvida, demokratik islohotlar jarayoni va fuqarolik jamiyatining rivojlanishida ta'lim muassasalari talabalarining o'rni alohida ekanligi qayd etildi.

Mazkur tadbir yoshlarning parlament tizimi va qonunchilik faoliyati haqidagi tushunchalarini kengaytiribgina qolmay, balki ularning ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'z navbatida, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

"Xalq so'zi".

HUQUQIY EKSPERIMENT — TIZIMLI MUAMMOLARGA SAMARALI YECHIM

Yangi tartib-taomillarni hayotga joriy etishdan oldin ularni tajriba-sinov tarzida qo'llash amaliyoti kengayib bormoqda. Tahlillarga ko'ra 2018 — 2024-yillar davomida davlat boshqaruvi, saylov, soliq, sog'liqni saqlash, yuridik xizmatlar, uy-joy va kommunal, investitsiya, xususiy mulk himoyasi kabi soha va tarmoqlarda 60 dan ortiq eksperimentlar o'tkazilgan. Bu — yurtimizda har yili o'rtacha 10 ga yaqin tajriba-sinovlar o'tkazilgan.

Qonun loyihasi

Huquqiy eksperiment davlat va jamiyat hayotida muhim institutga aylanib bormoqda. Uning huquqiy asoslari va me'yorlari qonun bilan belgilab qo'yish katta ahamiyatga ega.

To'g'ri, huquqiy eksperiment instituti O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 34-maddasida qayd etilgan. Ammo uni o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar kompleks tarzda tartibga solinmagan. Jumladan, eksperiment o'tkazish shartlari va davomiylik muddati, huquqiy eksperiment joriy etish mumkin bo'lmagan sohalar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlar hamda ma'muriy hujjatlarining eksperiment tugaganidan keyin amal qilishi yoki qilmasligi yoxud javobgarlik masalalari tartibga solinmagan.

Ayrim jihatlarga atroflicha to'xtalib



Huquqiy eksperimentni o'tkazishda yagona yondashuv mavjud emas. Ya'ni qonunchilik hujjatlarini loyiha bosqichida yoki qabul qilingandan keyin kuchga kiritish qadar yoxud kuchga kiritishdan so'ng eksperimentdan o'tkazilgan.

Mazkur kamchiliklar, huquqiy bo'shliqlar turli sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tarqoq holda tartibga solish salbiy amaliyotining davom etishiga olib kelmoqda. Bu esa huquqiy kolliziyalarni, huquqni qo'llashda turlicha talqin qilish va murakkabliklarni yuzaga keltiryapti.

Ayrim jihatlarga atroflicha to'xtalib

o'tadigan bo'lsak, eksperiment tartibida qabul qilingan hujjatlarining barchasida ularning samaradorligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va prognozlarini, 23 tasida esa huquqiy eksperimentlarni yakunlash muddatlari mavjud emas. O'tkazilgan eksperimentlarning 30 tasi bo'yicha tahlillar bor, 22 tasi bo'yicha esa umuman tahlil olib borilmagan, 50 tasi yuzasidan eksperiment samaradorligi baholanmagan, 39 tasi bo'yicha ularning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosalar shakllantirilmagan.

Bundan tashqari, qonunchilik hujjatlarida eksperiment muddati tugamagan bo'lsa-da, uning samaradorligini tahlil qilish natijasida uni bekor qilish holatlari ham mavjud.

Yuqoridagi kamchiliklar va huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish, tartib-taomillarni aniq belgilash maqsadida "Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan. Ayni paytda loyiha Qonunchilik palatasida ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.

Muayyan sohada normativ-huquqiy hujjat yoki eksperimental-huquqiy norma samaradorligini tahlil qilish hamda ularning natijasida yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan

ehtimoliy oqibatlarni o'rganish, baholash, shu orqali samarali huquqiy normalarni amaliyotga joriy etish huquqiy eksperimentning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Qonun loyihasi bilan tartibga solinayotgan asosiy masalalarga to'xtalsak. Avvalo, insonning huquq va erkinliklarini cheklamay, bekor qiladigan yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yomonlashtiradigan hollarda huquqiy eksperiment o'tkazilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilanmoqda.

Huquqiy eksperimentni tashkil etish, o'tkazish, uning natijalarini baholash va joriy qilishning bir qator shartlari aks etyapti. Yana bir muhim jihati, ijtimoiy ahamiyat va murakkablik darajasiga ko'ra huquqiy eksperiment 6 oydan 3 yilgacha bo'lgan muddatda o'tkazilish nazarda tutilmoqda.

Eksperiment o'tkaziladigan hudud tegishli mahalliy hokimiyat organlari bilan maslahatlashuvlar asosida ma'muriy-hududiy birlikning xususiyati, o'ziga xosligi va tabiatidan kelib chiqib belgilanishi nazarda tutilyapti.

Huquqiy eksperiment faqat O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari,

Prezident farmonlari va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan o'tkazilishi belgilab qo'yilmoqda.

Shuningdek, huquqiy eksperiment o'tkazish shakllari, usullari, uni o'tkazish tartibi va bosqichlari aniqlashtirilmogda. Huquqiy eksperiment o'tkazishni to'xtatib turish va tugatish asoslari, uning natijalarini baholash va yakunlarini rasmiylashtirish tartibi ham nazarda tutilyapti.

Ilg'or texnologiyali taraqqiyot, faol, shu bilan birga murakkab munosabatlar barcha sohaga chuqur kirib bormoqda. Har qanday o'zgarish va yangilikni sinovdan o'tkazgandan so'ng joriy etish har tomonlama maqsadga muvofiq sanaladi. Tizimli muammolarga eng samarali yechimlarni topish zarur. Huquqiy eksperiment mana shu jihatdan ham muhim institutdir.

"Huquqiy eksperiment to'g'risida"gi qonun loyihasining qabul qilinishi davlat va jamiyat boshqaruvinu takomillashtirishga, asosiy, fuqarolar hayoti va farovonligini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Firdavs SHARIPOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

O'zbekiston va Vengriya: samarali muloqot va muhim kelishuvlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga tashrifi kun tartibidan oliy darajadagi muzokaralar, mezbom mamlakat rasmiylari va yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuvlar, hamkorlik va strategik sheriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari o'rin olgan edi.



Shavkat Mirziyoyev va Laslo Kyover o'rtasidagi uchrashuv natijalari ikki davlat uchun muhim sanaladi. U qonun ijodkorligida tajriba almashish orqali O'zbekistondagi parlament faoliyatini modernizatsiya qilish, huquqiy baza va qonunlarni yangilashda Yevropa tajribasidan foydalanish imkonini yaratadi. Shuningdek, O'zbekiston va Vengriya parlament qo'mitalari o'rtasida siyosiy ishonchni oshiradi hamda ikki davlat qonun chiqaruvchi organlarining institutsional hamkorligini mustahkamlaydi. Bu esa kelgusidagi kelishuvlarni tez va samarali amalga oshirishni osonlashtiradi.

Vengriyada hududiy rivojlanish Yevropa Ittifoqi standartlari

asosida olib boriladi. Ushbu tajriba O'zbekistonga hududlarni samarali boshqarish, resurslarni adolatli taqsimlash, investitsiya jalb qilish va infratuzilmani rivojlantirishda yordam beradi.

Shavkat Mirziyoyev Budapeshtda Vengriyaning yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan ham uchrashuvlar o'tkazdi. Tadbirida Vengriya tomonidan "OTP Bank", "BDPST Group", "4IG", "Indotek", "MVM", "Duna Group", "MOL Group", "H2O Consortium", "Inpark", "Wizz Air" va boshqa ko'plab kompaniyalarning top-menejerlari va ta'isichilari ishtirok etdi.

Muzokaralar davomida iqtisodiy sheriklikni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi. Qo'shma loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va tayyor mahsulotlarni uchinchi mamlakatning iqtisodiy bozorlariga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash, transport bo'yicha o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, xususan, yuk tashishni ko'paytirish hamda O'zbekiston va Vengriya o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Vengriya kompaniyalarining qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qiziqishini yuksak baholadi.

MUSTAHKAM HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosatga pragmatik yondashuvni saqlab qolgan holda, Yevropani nafaqat investitsiyalar va ta'minot bozori, balki barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va demokratik boshqaruv sohasida ham qimmatli tajriba taklif eta oladigan makon sifatida qabul qilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi roli, tajribasi va texnologiyalarini inobatga olgan holda, u bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratyapti. Zero, YEI O'zbekistonning eng muhim strategik hamkorlaridan biri, desak, yangilishmaymiz.



Keyingi paytlarda akademik va madaniy almashinuv ham faollashmoqda. "Erasmus+" dasturlari, Yevropa universitetlari va tahlil markazlari bilan hamkorlik O'zbekiston yoshlari va ekspertlari hamjamiyatining dunyoqarashini kengaytirib, global fikrlaydigan yangi avlod mutaxassislarini shakllantirishga yordam bermoqda. Ushbu jarayonda madaniy diplomatiya ham muhim rol o'ynaydi. Ya'ni ko'rgazmalar, kinofestivallar, tarixiy meros, san'at sohasidagi qo'shma loyihalar xalqlar o'rtasida o'zaro anglashuv va hurmatni shakllantiradi.

Yevropa haqida so'z borganida, YEning alohida mamlakatlari ham nazarda tutiladi. Masalan, Vengriya O'zbekistonning Yevropadagi muhim sheriklaridan biridir. Birgalikdagi intilish va amaliy ishlar natijasida bu sheriklik yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha ikki mamlakatning qarash va yondashuvlari o'xshashligi fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi kunda amaliy hamkorlik ham barcha yo'nalishda izchil rivojlanib boryapti. Parlamentlar, hukumatlar, idora va hududlar darajasida samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. BMT, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlik qilinmoqda. O'zaro savdo hajmi ortib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yetakchi korxonalarning kooperatsiyasi kuchaymoqda.

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga tashrifi ikki tomonlama aloqalarda butunlay yangi bosqichni boshlab beradi. Ayniqsa, kuni kecha Budapeshtda Kengaytirilgan strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzolashni muhim va ramziy qadam bo'ldi. Bu ikki tomonlama hamkorlikning yangi darajasi hisoblanib, ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi.

Davlatimiz rahbarining Vengriyaga rasmiy tashrifi chog'ida hukumatlararo va idoralararo hujjatlar ham qabul qilindi. Iqlim o'zgarishi sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim, tabiiy ofatlar boshqarish sohasidagi idoralararo kelishuvlar, fan va innovatsiyalar, tinch otam sohasidagi hamkorlik, ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma va boshqalar shular jumlasida.

Shu tariqa, qo'shma investitsiya loyihalarining joriy portfeli 500 mln. AQSH dollarini tashkil etadi va yana qiymati 1,5 mlrd. yevroga teng

loyihalar tayyorlangan. Tomonlar iyul oyida Budapeshtda bo'lib o'tadigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilish chog'ida Investitsiyaviy hamkorlik dasturini qabul qilishga kelishib oldi.

Tashrif chog'ida Prezidentimiz Vengriyaning biznes hamjamiyati vakillari bilan ham uchrashdi. Ular bilan yangi loyihalarni amalga oshirish, jumladan, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, avtomobil yo'llari va logistika markazlarini qurish, kommunal tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor to'qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar va baliqchilik sohasidagi kelishuvlarga erishildi.

Bu va boshqa chora-tadbirlar birinchi bosqichda tovar ayirboshlash hajmini 500 mln. yevroga yetkazishga xizmat qiladi. Bunga import o'rni bosish imkoniyatlari va "GSP+" maqomi hisobiga erishiladi. Ushbu maqsadda Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiq, laboratoriyalar akkreditatsiyadan o'tkazilib, tovarlarni dastlabki sertifikatlash dasturi va eksportchi kompaniyalarga ko'maklashish bo'yicha qo'shma platforma ishga tushiriladi.

Shavkat Mirziyoyev va Viktor Orban dolzarb xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashdi. Terrorizm, ekstremizm, gijohvandlik moddalarining noqonuniy aylanmasi, odam savdosi va boshqa zamonaviy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Ishbilarmonlik, turizm va madaniy almashinuvlarni faollashtirish maqsadida ikki mamlakat o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Kelgusi yilni "O'zbekiston va Vengriya madaniyati yili", deb e'lon qilish taklif etildi. Bundan tashqari, ikki diplomatiyaviy o'qish uchun va O'zbekistonda Vengriya oliy ta'lim muassasalarining filiallarini ochish imkoniyatlari muhokama etildi.

Prezidentimiz Vengriya poytaxti Budapesht shahrida bo'lib o'tgan Turkiya davlatlar tashkilotining norasmiy sammitida ishtirok etib, jahonda geosiyosiy va geoiqtisodiy ziddiyatlar, mintaqaviy nizolar va

iqlim o'zgarishi oqibatlari kuchayib borayotgan bugungi murakkab vaziyat shiddat bilan o'zgarib borayotganini aytdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar turkiy dunyo taraqqiyoti va farovonligi yo'lida ko'p qirrali o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi mazmun bilan to'ldirib, butun turkiy dunyo ravnaqini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shadi. O'zbekiston yetakchisi nutqida ilgari surilgan muhim tashabbuslar xalqaro ijtimoiy-siyosiy va ekspert doralari vakillari tomonidan yuksak baholanmoqda.

Binobarin, davlatimiz rahbari o'z nutqida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va transport-kommunikatsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, tashkilot mamlakatlarning umumiy tashqi savdo aylanmasida o'zaro savdo ulushini oshirish maqsadida "Turk-treyd" onlayn platformasini yaratish va Tovar ayirboshlashni ko'paytirish bo'yicha amaliy dastur qabul qilish taklifini ilgari surdi.

Sanoat kooperatsiyasi sohasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish vaqti kelganini qayd etib, bu borada kimyo, energetika, tog'-kon, yengil sanoat, farmatsevtika, charm-poyabzal, oziq-ovqat va qurilish sohasidagi salmoqli ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish bo'yicha Sanoat kooperatsiyasi dasturini ishlab chiqishni taklif qildi. Shu nuqtayi nazardan aytganda, sammitda ilgari surilgan amaliy tashabbuslar turkiy xalqlar farovonligi va taraqqiyoti yo'lida ko'p tomonlama munosabatlarni yangi mazmun bilan boyitishga ishonamiz.

Ushbu sammit esa TDT mamlakatlarning o'zaro hurmat, ishonch va ochiqlik tamoyillarini mustahkamlab, birgalikda turli to'siqlarni samarali yengib o'tishga tayyor ekanini yaqqol ko'rsatdi. Uning yakunida qabul qilingan bitim va qarorlar turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga, pirovardida qardosh xalqlarni bir-biriga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbarining Vengriyaga rasmiy tashrifi siyosiy muloqotni chuqurlashtirish, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va xalqaro maydonda qo'shma tashabbuslarni ilgari surishga bo'lgan o'zaro qiziqishni namoyish etdi. Budapeshtda imzolangan deklaratsiya shunchaki protokol uchun amalga oshirilgan xatti-harakat emas, balki chuqur o'ylangan va kelajakka yo'naltirilgan tashqi siyosiy yo'nalish natijasidir. Bu, o'z navbatida, geografik jihatdan uzoqlik o'zaro hurmat, ishonch va farovonlikka bo'lgan umumiy irodaga asoslanadigan do'stlik rishtalarini mustahkamlashga to'siqsiz qilmashligini isbotladi.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi
rahbari.

BARQARORLIK MODEL

Davlatimiz rahbarining Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban bilan uchrashuvi va unda erishilgan kelishuvlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi. Mazkur tashrif doirasidagi muzokaralar natijalari O'zbekiston tashqi siyosatining ochiq, pragmatik va manfaatlariga asoslangan yo'nalishini yana bir bor tasdiqladi.



Bugungi kunda O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar o'zgarib hamkorlik chegaralaridan ancha yuqori bosqichga ko'tarilib, kengaytirilgan strategik sheriklik darajasiga yetib bordi. Bu nafaqat ikki tomonlama munosabatlarning yuksak darajada ekanligini, balki har ikki davlatning uzoq muddatli istiqboliga asoslangan hamkorlikdan dalolat beradi.

Muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror o'sishga erishmoqda. Ammo bu ko'rsatkich mavjud salohiyatni to'liq aks ettirmaydi. Shu maqsadda, tomonlar yaqin kelajakda o'zaro savdo hajmini 500 mln. dollarga yetkazish, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib oldi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik - O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlarning muhim yo'nalishlaridan biri. Tashrif doirasida imzolangan hujjatlar orasida Vengriyaning Debretsen universiteti ta'lim dasturlarini O'zbekistonda amalga oshirish bo'yicha kelishuv alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlashda, balki ilmiy tadqiqot salohiyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, kelishuv hujjatlarida madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirish, xalqlar o'rtasida do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ham o'z aksini topdi. Vengriyadagi o'zbek diasporasi bilan hamkorlik, madaniy tadbirlar, konsert va festivallar tashkil etish, jahon merosi ro'yxatidagi qo'shma tadqiqotlar kabi yo'nalishlar muhokama qilindi.

Aytish joizki, O'zbekiston va Vengriyani nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki umumiy qadriyatlar, jumladan, milliy suverenitet, an'anaviy qadriyatlarni himoya qilish, global inqirozlarga qarshi birgalikda kurashishga tayyorlik kabi qarashlar ham birlashtiradi. Tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasidagi faol hamkorlikni davom ettirishga kelishib olgani yanada e'tiborga molik.

Sirasini aytganda, mazkur uchrashuv va uning natijalari O'zbekistonning Markaziy Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri sifatida Vengriya bilan aloqalarini har tomonlama chuqurlashtirishga qaratilgan siyosatining amaldagi ifodasidir. O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi bugungi strategik sheriklik ikki xalq manfaatlarini to'liq aks ettiradigan, doimiy muloqot va amaliy hamkorlikka asoslangan, uzoq muddatli hamda barqaror munosabatlar modeliga aylanmoqda. Bu esa nafaqat ikki mamlakat, balki butun mintaqaga uchun ham barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi.

Sayyora ABDIKARIMOVA,
Oliy Majlis Senatining
Agrar, suv xo'jaligi masalalari va
ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari.

MARKAZIY OSIYONI YEVROPA BILAN BOG'LOVCHI TRANSPORT KORIDORI

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilmoqda. Xususan, 2024-yilda 74,9 mln. AQSH dollarilik tashqi savdo hajmi va 16 ta qo'shma korxonaga faoliyati bu sheriklikning amaliy mevasidir. Hamkorlikning eng qiziqarli jihati - bu ikki davlatning o'zaro to'ldiruvchi iqtisodiy imkoniyatlarga ega ekanligi hisoblanadi.

Xususan, Vengriya O'zbekiston uchun nafaqat farmatsevtika va tabiiy jihozlari yetkazib beruvchi, balki ilg'or texnologiyalar va tajriba manbai sifatida ham muhim ahamiyatga ega. O'z navbatida, O'zbekiston esa qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati va to'qimachilik kabi mahsulotlari eksportini samarali yo'lga qo'ydi. 2025-yilning dastlabki 4 oyida transport vositalari va ehtiyot qismlari importining 4,4 barobar, chorvachilik mahsulotlarining 2,1 karra o'sishi shuni ko'rsatadi, vengriyalik ishlab chiqaruvchilar O'zbekiston bozorida yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Ayni paytda, O'zbekistonning qo'g'oz mahsulotlari eksporti 10 barobar, to'qimachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 2 karra o'sishi bilan Vengriya bozorida mustahkam o'rin egallamoqda.

O'zbekiston bojxona xodimlari AQSHning "Uscentcom" loyihasi doirasida 2022-yilda Budapeshtda bo'lib o'tgan mintaqaviy seminarida qatnashib, xalqaro tajriba bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hamkorlikning amaliy natijalari 2023-yilda ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi" doirasida aniq belgilab olindi. Ishirokchilarning dastlabki yig'ilishi bojxona nazorati, kontrabandaga qarshi kurashish va raqamli texnologiyalarni joriy etish kabi muhim mavzularni qamrab oldi.

Vengriya tomonining ilg'or tajribasi, xususan, xavflarni boshqarish tizimlari va malakali kadrlar tayyorlash dasturlari O'zbekiston bojxonachilari uchun, ayniqsa,



samarali bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, kelgusida zamonaviy texnologiyalar almashinuvi va qo'shma korxonalar yaratish orqali bu aloqalarni yanada mustahkamlashga erishish mumkin. Shuningdek, ushbu hamkorlikni bundand-da chuqurlashtirish uchun qo'shma tenevning markazlarini tashkil etish, sun'iy intellekt hamda raqamli platformalar asosida bojxona nazorat tizimlarini joriy qilish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda tajriba almashish dasturlarini yo'lga qo'yish kabi yangi loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

Bularning barchasi nafaqat O'zbekiston va Vengriya, balki butun Markaziy Osiyo - Yevropa transport koridori uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yangi darajaga ko'tarishga hissa qo'shadi.

Rahmonqul SHOIMQULOV,
Bojxona qo'mitasining Ilmiy markazi
bosh inspektori.

GLOBAL MUHITDAGI PRAGMATIK YONDASHUV

Bugun xalqaro va diplomatik munosabatlarda yangi O'zbekiston qiyofasi tom ma'noda gavdalanmoqda. Barcha birdek guvoh bo'lyaptiki, dunyo O'zbekistonga, mamlakatimiz esa dunyoga keng ochiq. Shu ma'noda, Prezidentimiz Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan Budapeshtga tashrif buyurdi.



Avvalo, aytish joizki, Vengriya Yevropaning markaziy qismida, Dunay daryosining o'rta oqimida joylashgan davlat. Aholisi soni 10 million 440 ming kishidan ortiq bo'lib, turli millat va elat vakillaridan iborat. Poytaxti - Budapesht shahri. Ma'muriy jihatdan o'n to'qqiz viloyatga bo'linadi. Vengriya - demokratik davlat. U tarixiy zamin bo'lib, hududida dastlabki manzilgohlar paleolit davrida paydo bo'lgan. Bu yerda skif, illiri, kelt qabilalari yashagan.

Vengriya - industrial-agrar mamlakat. Sanoati ilg'or texnika bilan jihozlangan, qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan. Yalpi ichki mahsulotda sanoatning ulushi 35,5 foiz, qishloq va o'rmon xo'jaligining hisssasi 12 foizni tashkil qiladi. Sanoatining yetakchi tarmoqlari mashinasozlik, qora hamda rangli metallurgiya, elektronika, oziq-ovqat, mebel va yengil sanoatdir. Yoqilg'i-energetika sohasida ko'mir asosiy o'rin egallaydi. Ushbu mamlakatda neft hamda tabiiy gaz qazib olish rivojlangan.

Asosiy transporti - temir yo'l tarmog'i, avtomobil hamda Dunay daryosidagi kemalar qatnovi. Porti - Budapesht

Osiyoga qilgan safarini bu yo'ldagi dastlabki odim deiyish mumkin. Bu davlat 1991-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi. 1992-yil ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan.

Keyingi yillarda bu aloqalar yangicha sur'at oldi. Ayniqsa, 2021 va 2022-yillarda o'zaro rasmiy tashriflar, Budapesht va Toshkentda o'tkazilgan biznes-forumlar, strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiyalar ikki mamlakat o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor yaratdi.

2024-yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 78 mln. 100 ming dollarni tashkil qildi. Farmatsevtika, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va ta'lim sohasidagi investitsiyaviy loyihalar ikki mamlakat munosabatlarning ko'laminu boyitmoqda. "Angren" erkin iqtisodiy zonasida venger kompaniyalari uchun ajratilgan maxsus sanoat hududi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Vengriya - Yevropa davlatlari qatorida hisoblanadigan, uning o'ziga xos "Sharq bilan hamkorlik" va "Sharqona" strategiyasini yuritishi bois ko'hna qit'a davlatlaridan ajralib turadi. Mamlakat Bosh vaziri Viktor Orban hukumatini tarixiy haqiqatlarni teran anglagan holda, Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni o'rnatilgan tartib-qoidalariga muvofiq

saqlab, Turkiya, Xitoy, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlab kelmoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, Vengriya 2018-yilda Turkiya davlatlar tashkilotida kuzatuvchi maqomini olgan ilk Yevropa davlati bo'ldi. 2019-yilda esa Budapeshtda tashkilotning Yevropa vakolatxonasi ochildi. O'zbekiston turkiy davlatlar o'rtasida integratsiya jarayonlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida Vengriya bilan yaqin hamkorlik qilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi aloqalar nafaqat siyosatchilar va diplomatlar doirasida, balki ijtimoiy-gumanitar sohalarda, ayniqsa, xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni ham rivojlantirmoqda. Ikki davlat rahbarlarining tashabbuslari bilan 2018-yildan buyon har yili 170 nafargacha o'zbekistonlik yoshlarga Vengriya universitetlarida o'qish uchun davlat stipendiyalari ajratib kelinayotir. So'nggi yillardagi ilmiy hamkorlik, startap loyihalar, Alisher Navoiy haykali o'rnatilishi va o'zbek kinosi kunlari - bular madaniy muloqotning yorqin misollari.

Prezidentimizning navbatdagi rasmiy tashrifi ham hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, shubhasiz. Chunki ikki davlatda ham har tomonlama manfaatli hamkorlik uchun yetarlicha sabab, sharoit va imkoniyatlar mavjud.

Ayniqsa, transport va logistika, oziq-ovqat xavfsizligi, qayta tiklanadigan energiya, yuqori texnologiyalar va raqamlashtirish - bu yo'nalishlar ikki mamlakat hamkorligining asosiy kun tartibiga aylanmoqda.

O'zbekiston - Vengriya o'rtasidagi munosabatlar bugun tarixiy ildizlar, geosiyosiy manfaatlar va yangi global muhitdagi pragmatik yondashuv asosida shakllanmoqda. Bu ikki mamlakat o'z o'lmishi, madaniyati va maqsadlari bilan farq qilsa-da, ularni umumiy strategik manfaatlar birlashtiradi. Toshkent - Budapesht hamkorligi nafaqat ikki xalq manfaatli, balki keng mintaqaviy barqarorlik uchun xizmat qiladi.

Tashrif ikki davlat uchun ham tarixiy ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro va mintaqaviy masalalar bo'yicha mamlakatlarimizning qarashi va yondashuvlari o'xshash. Shundan kelib chiqib, sifati jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan O'zbekiston va Vengriya munosabatlari nihoyatda istiqbolli, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Asosiysi, bu hamkorlik ikki mamlakat taraqqiyoti, xalqlarimizning yanada farovon hayotini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti
rektori, professor.



EKOLOGIK MADANIYATNI YUKSALTIRISHGA OID KENG IMKONIYATLAR

Global ekologik kurashish, ularning xavfi va salbiy ta'sirlarini kamaytirish tizimli yondashuvni, inson hamda tabiat uyg'unligiga asoslangan choralarni ko'rishni taqozo etadi.

muhabbat ruhini, qonunlarga rioya etish tushunchalarini singdirib borishdek ezgu maqsadlarni ro'yogba chiqaradi.

Darhaqiqat, bugun aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish yo'nalishida davlat organlarining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini birlashtirish hamda qo'llab-quvvatlash dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur hujjatda barcha ekologik tashabbus, ona tabiat muhofazasiga qaratilgan sa'y-harakatlarini umumiy maqsad yo'lida birlashtirish uchun zarur bo'lgan muhim vazifalar o'rin olgani e'tiborga molik.

Qayd etish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga egaligi, davlat fuqarolarining ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishni qat'iy belgilab qo'yilgan.

Biroq bugun xalqimizning ush-



bu haq-huquqlarini ta'minlash ustidan samarali jamoatchilik nazorati yo'lga qo'yilmagan. Shu bilan birga, aholi o'rtasida ekologik madaniyatni yuksaltirish ishlari tizimli va uzviy tashkil etilmagan. Jamiyatda, oilada, mahallada, ta'lim muassasalarida, davlat organlarida ekologik madaniyatni yuksaltirishning uzluksiz mexanizmini yaratishga katta ehtiyoj yuzaga kelmog'ida.

Shundan kelib chiqqan holda, 2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi o'sib kelayotgan yosh avlodga ekologik bilim, ong va madaniyatni shakllantirish hamda rivojlantirish, ushbu yo'nalishda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, aholining barcha qatlamida ekologik madaniyatni, shu jumladan, "yashil" iqtisodiyot madaniyatini yuksaltirishga qaratil-

gan aniq vazifalarni qamrab olgan.

Yana bir e'tiborli jihati, konsepsiyani hayotga samarali tatbiq etish uchun 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da 73 ta aniq chora-tadbir belgilab berildi, 6 ta yo'nalishdagi maqsadli ko'rsatkichlar esa yuksak ekologik madaniyat va tafakkurga ega avlod qatlamini shakllantirishni ko'zlaydi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarning ro'yogba chiqarilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, buning uchun, eng avvalo, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishning huquqi va uslubiy bazasini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimi yanada takomillashtiriladi.

Oilada ekologik tarbiyani shakllantirish va ekologik madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ekologik ta'lim va tarbiyani shakllantirish hamda yuksaltirishda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimi tashkilotlari roli oshiriladi.

Kasbiy ta'lim va oliy ta'limda ham yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ko'riladi. Oliy ta'limdan keyingi bosqichda ham ekologik

madaniyatni yuksaltirish sohasidagi tadqiqotlarga keng yo'l beriladi.

Ahamiyatli, davlat organlari va tashkilotlarida, mahallalarda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo'yicha aniq va tizimli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Mazkur hujjat bilan "O'zbekiston ekovolontyor talabalari" harakatining tashkil etilishi aholining turli qatlamlari, oliy ta'lim muassasalari va yoshlar o'rtasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Yangi daraxt - yangi nafas" respublika eko-chempionatlari, "Mahallani chiqindidan xoli hududga aylantiramiz" shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlari olib boriladi. Bu, shubhasiz, atrof-muhitni muhofaza qilishda yoshlarning va keng jamoatchilikning rolini yanada oshiradi.

U ekologik madaniyatni yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining rolini mustahkamlash, mansabdor shaxslar va fuqarolarda ekologiya hamda atrof-muhitga bo'lgan hurmat hissini kuchaytirish, ekologik huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini ta'minlash yo'lida muhim dasturiy hujjat bo'lib xizmat qiladi.

Oybek RAHIMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

PEKJAMA

«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat bankining ovoz beruvchi (oddiy) aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlariga BILDIRISHNOMA

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi majlisining 2025-yil 17-apreldagi 11-sonli bayonnomasi asosida, nominal qiymati 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so'm bo'lgan 1 942 977 590 (bir milliard to'qqiz yuz qirq ikki million to'qqiz yuz yetmish yetti ming besh yuz to'qson) dona odiy egasining nomi yozilgan hujjatdagi aksiyalar chiqarilganligini hamda ushbu chiqarilishdagi aksiyalar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va savdo vazirligi tomonidan 2025-yil 19-mayda P0005-32-son bilan ro'yxatga olinganligini ma'lum qiladi.

Aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorga muvofiq:

■ ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarining egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega;

■ aksiyador ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib darajada imtiyozli olish huquqiga ega bo'ladi;

■ bank aksiyalarini imtiyozli olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ro'yxati 2025-yil 17-aprel kuni holatiga shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reyestrining ma'lumotlari asosida tuziladi;

■ imtiyozli huquq amalga oshirilgan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning faqat butun miqdorini olishi mumkin;

■ imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyador aksiyalarni olishi to'g'risida o'zining ismi-sharifi (nomi) va yashash joyi (joylashgan yeri), o'zi oladigan aksiyalarining soni ko'rsatilgan yozma shakldagi arizani va haq to'laganlik to'g'risidagi hujjatni bankka (bankning bosh ofisi yoki bank hududiy bo'linmalari) yuborish orqali o'z imtiyozli huquqini to'liq yoki qisman amalga oshirishga haqli. Bunday ariza mazkur imtiyozli huquqning amal qilish muddati ichida bankka (bankning bosh ofisi yoki bank hududiy bo'linmalari

orqali) taqdim etilishi kerak;

■ aksiyadorlarning aksiyalarni imtiyozli olish huquqi bildirishnoma e'lon qilingan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kun davomida amal qiladi;

■ imtiyozli huquqdan boshqa shaxs foydasiga yoki kechishga yo'l qo'yilmaydi;

■ ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 068 (bir ming oltmish sakkiz) so'mdan joylashtiriladi;

■ aksiyalar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida faqat pul mablag'lari bilan naqd va (yoki) naqdsiz shaklda qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

■ aksiyalar to'lanishiga kelib tushadigan naqd va (yoki) naqdsiz shakldagi pul mablag'lari, shu jumladan, plastik kartalardagi pul mablag'lari ko'chirilishi lozim bo'lgan Emitentning bank rekvizitlari - bank nomi: "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (qisqa nomi: "Mikrokreditbank" ATB), bank manzili: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 4-uy, bank tarkibiy bo'linmasi nomi: Amaliyot boshqarmasi (qisqa nomi: Amaliyot boshqarmasi), bank tarkibiy bo'linmasi manzili: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shohko'chasi, 4-uy, bank STIR: 200547792, bank hisobvараqlari: 29830000300000433277 (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi uchun), 2983000060451255001 (O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi uchun) va 2983000090000433213 (boshqa aksiyadorlar uchun), bank kodi (MFO):00433 bo'yicha qabul qilinadi;

■ imtiyozli huquq asosida har bir aksiyador olishga haqli bo'lgan aksiyalarining sonini aniqlash tartibi - aksiyador o'ziga tegishli odiy aksiyalarni bank tomonidan ilgari joylashtirilgan jami 4 791 517 373 dona odiy aksiyalardagi ulushini aniqlaydi va shu ulushga teng miqdordagi ushbu

Bankning elektron pochta manzili: info@mikrokreditbank.uz, rasmiy veb-sayti: www.mikrokreditbank.uz Telefon: 71-202-99-99 (ichki raqam: 1304, 1308).

Qiziqish bildirishga so'rov

«O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik» loyihasi

Kredit raqami: 7425-UZB

Xizmat tavsifi: "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MCHJ "O'zbekistonda raqamli inklyuzivlik" loyihasi doirasida quyidagi xizmatlar uchun muvofiq shaxslarni ("Individual konsultant") qiziqish bildirishga taklif qiladi:

- UZ-DIP-493448-CS-INDV - O'zbekistonda yoshlar hamjamiyatlari uchun "yumshoq" ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturini o'tkazish;
- UZ-DIP-493445-CS-INDV - O'zbekistonda yoshlar hamjamiyatlari uchun "yumshoq" ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturini o'tkazish.

Qiziqish bildirishning oxirgi muddati: 2025 yil 2 iyun soat 15:00 ga qadar.

Batafsil ma'lumot uchun: udip@it-park.uz, tel.: 71-209-11-99, 90-929-60-49.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANDAQ INSTITUTI vakant (bo'sh) professor-o'qituvchilar lavozimiga tanlov e'lon qiladi.

1. Tolali materiallarni dastlabki ishlash	Kafedra mudiri	Dotsent
2. Mexanika muhandisligi	Dotsent	Katta o'qituvchi
3. O'zbek va xorijiy tillar	Katta o'qituvchi	Assistent
4. Charm va poyabzal muhandisligi	Dotsent	
5. Buxgalteriya hisobi va marketing	Professor	
6. Avtomatlashtirish va dasturiy injiniring	Katta o'qituvchi	
7. Kimyo va matbaa muhandisligi	Dotsent	
8. Tikuv buyumlari texnologiyasi va raqamli injiniring	Katta o'qituvchi	

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar rektor nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, diplomlar va attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlar nusxalarini topshiradi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Eslatma: mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradi, tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadi. Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 5-uy, 1-bino, 208-xona. Telefon: 71-253-17-78.

FAN VA MADANIYAT YANGILIKLARI

Boy meros ko'zgusi

O'zbek milliy maqom san'ati markazi muzey fondi tarixiy ahamiyatga ega eksponatlar bilan to'ldirildi. Gap shundaki, fondga O'zbekiston xalq artisti, o'zbek musiqali drama teatri san'ati va milliy orkestriga asos solgan atqoli bastakor To'xtasin Jalilovga oid muhim ashyolar olib kelindi.

Ushbu eksponatlar orasida, ayniqsa, 1965 yildan ishlab chiqarila boshlangan "Molodoyobny" rusumidagi elektrofon e'tiborni tortadi. Bu uskana san'atkor hayotining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan davr mahsul bo'lgani bilan tarixiy ahamiyatga ega.

Shuningdek, fondga san'atkoraga tegishli va hozirgi kunda juda noyob, tarixiy fotosuratlar ham topshirildi. Mazkur eksponatlar T. Jalilov merosini chuqurroq o'rganish, uning hayoti va ijodini keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatini oshiradi.



Tajriba va yoshlik uyg'unligi

Kecha poytaxtimizdagi "Zakovat" arena binosida yoshlar, ta'lim, innovatsiya va tadbirkorlik olamining eng yirik va nufuzli tadbirlaridan biri - "TalabaExpo - 2025" ko'rgazmasi ochildi.

Dastlab bitiruvchilar uchun "Talaba - kelajak" deb nomlangan ochiq muloqot o'tkazildi. Unda so'zga chiqqanlar bunday uchrashuvlar nafaqat bitiruvchilar uchun yo'l ko'rsatuvchi maydon, balki ularning yangi bosqichdagi hayot yo'lida ishonchli tayanch ekanini alohida ta'kidlashdi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, tijorat banklari va Savdo-sanoat palatasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda 1,5 ming nafar talaba va yosh mutaxassis qatnashib, tajribali mutasaddilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Tadbirlar davom etmoqda.



Mehr va e'tibor haqida hujjatli film

"Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" DUK tomonidan Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan "Hamroh" nomli hujjatli film olindi.

Ushbu filmda yurtimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam - qarovchisiz qariyalar, nogironligi bo'lgan fuqarolar hayotiga nazar tashlanadi. Davlatimiz tomonidan ular uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va yordam "Hamroh" nodavlat tashkiloti faoliyati misolida o'z ifodasini topadi.

Hujjatli film tomoshabinni mehr-muruvvat, insoniylik, bag'rikenglik kabi yuksak qadriyatlar haqida o'ylashga undashi bilan ahamiyatlidir.



"Barkamol avlod" bolalar maktabidagi bepul yozgi oromgohlar

Yoz - bu bolalikning eng quvonchli fasli. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika "Barkamol avlod" bolalar maktabida joriy yozda 7 yo'nalish bo'yicha bepul to'garak mashg'ulotlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Har bir yo'nalishda bittadan ixtisoslashtirilgan to'garaklar ish olib boradi.

Bu haqda vazirlikning rasmiy telegram sahifasida ma'lum qilindi.

Xabarga ko'ra to'garaklardan tashqari "Mazmunli yoz - Barkamol" shiori ostida tashkil etilgan yozgi oromgohda bolajonlar yangi bilimlarni egallashi, qiziqarli hamda foydali mashg'ulotlar bilan band bo'lishi va yangi do'stlar orttirishi uchun katta imkoniyat yaratiladi.



Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

Sport

O'zbekiston suzish bo'yicha ochiq chempionat mezboni

Toshkent shahrida suzish bo'yicha I Markaziy Osiyo ochiq chempionati o'tkazilmoqda. Mazkur musobaqada O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston terma jamoalari 158 ta medal jamlamasini uchun bellashyapti.



O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasiga qarashli "Suv sporti saroyi"da mamlakatimizda ilk marotaba o'tkazilayotgan ushbu yirik chempionat davlatimiz rahbarining yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni, shu jumladan, suv sportini rivojlantirishga qaratayotgan yuksak e'tibori natijasi, desak, ayni haqiqat.

O'tgan hafta davomida sinxron suzish bo'yicha o'tkazilgan "Suv parisi" xalqaro turniri va I Markaziy Osiyo ochiq chempionati bunga yaqqol misoldir. Mazkur nufuzli musobaqa yakuniga ko'ra sinxron suzuvchilarimiz jami 10 ta oltin, 102 ta kumush va 128 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

Aytish joizki, O'zbekiston suv sporti turlari federatsiyasining moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, suzuvchilarga yanada qulay imkoniyatlar yaratish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 4-noyabrda "Suv sporti turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Suv sporti turlari federatsiyasi tomonidan so'nggi yillarda mamlakatimizning turli hududlarida suv sporti turlarini aholi o'rtasida yanada ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni saralash, ularga keng imkoniyatlar yaratish borasida amaliy ishlar qilinmoqda.

ishlardan ko'zlangan maqsad - "Los-Anjeles - 2028" yozgi Olimpiya o'yinlariga suzish, suv polosi, svuga sakrash va sinxron suzish dasturlari bo'yicha yo'llanmalarni qo'lga kiritishdan iborat.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan suzish bo'yicha I Markaziy Osiyo ochiq chempionati ham sportchilarimiz jahon sporti maydonlarida yurtimiz sharafini munosib himoya qiloladi.

Ma'lumot uchun, musobaqa davomida "A", "V" va "S" guruhlarida 50, 100, 200 va 400 metrga erkin usulda suzish, 200 va 400 metrga kompleks suzish, 50, 100 va 200 metrga chalgancha, 50, 100 va 200 metrga batterflyay, 100 va 200 metrga brass usulida suzish, shuningdek, 4x100 metrga kombinatsiyalangan miks estafetasi, 4x100 metrga erkin usulda miks estafetasi, 4x100 metrga erkin usulda estafeta, 4x100 metrga kombinatsiyalangan estafeta kabi yo'nalishlarda bellashuvlar bo'lib o'tmoqda.

Qiziqarli bahslarda terma jamoamizning Eldor Usmonov, Anastasiya Zelinakaya kabi yetakchilari o'z masofalarida oltin medallarni qo'lga kiritdi.

Bellashuvlar 23-mayga qadar davom etadi.

"Xalq so'zi". Yunus BO'RIYEV olgan surat.

Saraton kasalligiga chalingan bolalarni 2025 - 2030-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan 100 foiz qamrab olish ko'zda tutilgan.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; ko'chibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir X. Norboev. Mas'ul Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 02.15 Topshirildi - 02.45 1 2 3 4 5 6